O’zbekiston xalq yozuvchisi Rishtonlik Isajon Sulton turk dunyosi adabiyot mukofotiga sazovor bo’ldi

O’zbek adabiyoti va ijodkorlari bugun dunyoga o’z so’zini aytmoqda.

Turkiyaning Bursa shahrida Turkiy tilli davlatlar tashkiloti, Turkiya madaniyat va sport vazirligi, Otaturk nomidagi madaniyat, til va tarix yuksak qurumi hamda Turk til qurumi hamkorligida «Tilda, fikrda, ishda birlik: turk dunyosi adabiyot (roman) mukofoti» topshirilishiga bag’ishlangan tantanali xalqaro marosim bo’lib o’tdi.

Tadbirda O’zbekiston, Ozarbayjon, Qozog’iston, Qirg’iziston, Turkmaniston, Shimoliy Kipr kabi davlatlardan taklif qilingan adib va olimlar qatori, bir qancha rasmiy kishilar, turkiy tilli davlatlarning elchilari ishtirok etdi.

Turkiya Prezidenti Rajab Tayyib Erdo’g’anning tadbir ishtirokchilariga yo’llagan maktubi o’qib eshittirildi. Har bir davlatdan bir yozuvchiga 2022 yil Turk dunyosi adabiyot mukofoti topshirildi. Ushbu yuksak mukofotga yurtimizdan O’zbekiston xalq yezuvchisi Isajon Sulton loyiq ko’rildi. Fursatdan foydalanib, sevimli adibimizni ushbu nufuzli mukofot bilan muborakbod etamiz.

2022-09-30 06:04:49